“Azot Sintezgaz. O‘zbekiston va MDH” 3-xalqaro kongressi va ko‘rgazmasi o‘z ishini boshladi

// 21 November 2024 yil
https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/azot-sintezgaz-o-zbekiston-va-mdh-3-xalqaro-kongressi-va-ko-



Avval xabar berganimizdek, poytaxtimizda “Azot Sintezgaz. O‘zbekiston va MDH” 3-xalqaro kongressi va ko‘rgazmasi o‘z ishini boshladi.

200 nafardan ziyod ishtirokchi qatnashayotgan va 10 dan ortiq investitsiya loyihalari taqdim etilayotgan mazkur nufuzli tadbir O‘zbekiston va MDH mamlakatlaridagi yirik sintez-gazini qayta ishlash korxonalari, hokimiyat organlari, ishlab chiqarish texnologiyalari litsenziarlari, uskuna ishlab chiqaruvi va yetkazib beruvchilar, injiniring va loyiha-qurilish kompaniyalarini bir maydonda jamladi.



Anjumanda “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisining birinchi o‘rinbosari Yevgeniy Korjikov ishtirokchilarga tabrik so‘zi yo‘llab, zamonaviy sharoitda texnologiyalarni mahalliylashtirishning ahamiyati va mahalliy bozorni rivojlantirish masalalariga alohida to‘xtaldi.

Chirchiq kimyo-industrial texnoparkining Rezidentlar bilan ishlash departamenti boshlig‘i Timur Boltaboyev texnoparklar haqida batafsil taqdimot qilib, xorijiy ishlab chiqararuvchilarni jalb etish masalalari bo‘yicha fikr bildirdi.



Kongress davomida ishlab chiqarish quvvatlarini qurish va modernizatsiya qilish bo‘yicha yirik investitsiya loyihalari, shuningdek, azot, metanol, ammiak va mineral o‘g‘itlar (azot, kaliy, fosfor, kompleks) ishlab chiqaruvchi mavjud korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish imkoniyatlari muhokama qilinmoqda.

Xususan, ishtirokchilar tadbirning birinchi kunida O‘zbekiston va MDHda sintez-gazini qayta ishlash sanoatining zamonaviy yechimlari yuzasidan o‘zaro fikr almashdilar.



Shuningdek, sohadagi yetakchilarning texnologik yutuqlari, yangi texnologiyalar, uskunalar, yechimlar va xizmatlar bozoridagi vaziyat tahlil qilindi. Tarmoqning texnologik rivojlanishi, innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishning ilg‘or tajribasi amaliy misollar bilan ko‘rib chiqildi.

Shu bilan birga ishtirokchilar metanol va ammiak - texnologik muammolar va ulardan ishlab chiqarishda foydalanishning afzalliklari, O‘zbekiston va MDH mamlakatlarida sanoat korxonalarini qurish bo‘yicha rejalashtirilgan va amalga oshirilayotgan loyihalar bo‘yicha o‘zaro tajriba almashishdi.





Kongress 21-noyabr kuni o‘z ishini davom ettiradi.



“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati